



2. Muhammad Yunusjon. *Tarixi Aliquli amirlashkar*. – Qo‘qon: 1870 (nashr: 2015). – B. 19.
3. Topildiev N. *Qo‘qon xonligi diplomatiyasi*. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 92–96.
4. Murodov A. tarj. *Usmonli arxiv hujjatlari*. – Istanbul: QKMB, 2019. – B. 49.

O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Xabibullayeva Shoiraxabibullayevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: _shoiraxabibullayeva@gmail.com
ORCID: <https://ORCID:0009-0006-9326-5199>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda interaktiv metodlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Interaktiv yondashuvlar ta’lim jarayonida o‘quvchi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashni rivojlantirishi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishi ta’kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida o‘qitishning amaliy natijalari tahlil qilinadi hamda o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: interaktiv metodlar, o‘zbek tili, ta’lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, innovatsion yondashuv.

APPROACHES TO ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE

Annotation: This article examines the effectiveness of interactive methods in teaching the Uzbek language. It highlights how interactive approaches increase learners’ engagement, foster independent thinking, and develop communicative competence. The paper also analyzes the practical outcomes of using modern technologies and innovative teaching methods, offering recommendations for their implementation in the educational process.

Keywords: interactive methods, Uzbek language, educational technologies, communicative competence, innovative approach.

ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности обучения узбекскому языку с применением интерактивных методов. Подчеркивается, что интерактивные подходы способствуют активизации учащихся, развитию самостоятельного мышления и формированию коммуникативной компетенции. Также анализируются практические результаты использования современных технологий и инновационных методов обучения, предлагаются рекомендации по их внедрению в образовательный процесс.

Ключевые слова: интерактивные методы, узбекский язык, образовательные технологии, коммуникативная компетенция, инновационный подход.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, dars jarayonlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyevning: “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish – yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim omilidir”, degan fikri ta’lim jarayonida innovatsion yondashuv va interaktiv metodlarning ahamiyatini yanada oshirdi. Zamonaviy o‘qitish jarayoni endilikda bilimni tayyor shaklda berish emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, izlanishga, muloqotga va amaliy faoliyatga yo‘naltirishni talab etmoqda.

Til o‘qitish sohasida, ayniqsa o‘zbek tili fanini o‘rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchi shaxsini faollashtirish, uning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. A. A. Avliyoqulov o‘z tadqiqotlarida interaktiv



metodlarni “o’quvchi va o’qituvchi o’rtasida o’zaro hamkorlik, faol muloqot va ijodiy tafakkur asosida bilim hosil qilish jarayoni” sifatida talqin etadi. Interaktiv o’qitish — bu o’quvchi markazda bo’lgan, o’qituvchi esa yo’naltiruvchi rolini bajaradigan, ta’lim jarayonida “subyekt-subyekt” munosabatiga tayanadigan metodik tizimdir. L. S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko’ra, o’quvchi o’z bilimni hamkorlikdagi faoliyat orqali mustahkamlaydi. Shunday ekan, o’zbek tili darslarida o’quvchilarni faollashtiruvchi interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, jamoaviy o’yinlar va rolli mashg’ulotlar samarali natija beradi.

O’zbek tili darslarida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Sinkveyn”, “Insert”, “Debat”, “Case-study” kabi metodlardan foydalanish o’quvchilarda tanqidiy tafakkur, muloqot madaniyati va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, “Aqliy hujum” usuli o’quvchining ijodiy g’oyalarini erkin ifodalashiga imkon beradi, “Klaster” usuli esa bilimlarni tizimlashtirish, sabab-oqibat aloqalarini ko’rish va tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, o’zbek tilini o’qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish ham interaktivlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. Masalan, onlayn platformalar, taqdimot dasturlari, virtual sinflar o’quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi. M. Xoshimov va D. Qodirovalarning ta’kidlashicha, texnologiyalarni interaktiv metodlar bilan uyg’unlashtirish dars samaradorligini 40–60 foizgacha oshiradi.

Interaktiv metodlarning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- o’quvchi faol ishtirok etadi, passiv tinglovchilikdan chiqadi;
- bilimni mustaqil izlab topadi va tahlil qiladi;
- o’rganilgan mavzuni real hayotiy vaziyatlar bilan bog’laydi;
- jamoaviy ish ko’nikmalari rivojlanadi;
- o’qituvchi bilan o’zaro muloqot, hamkorlik muhitini yaratadi.

Xorijiy tajribalarda ham bu yondashuv o’z samaradorligini ko’rsatgan. J. Dewey ta’limni “tajriba orqali o’rganish” sifatida baholagan bo’lsa, C. Rogers interaktiv ta’limni “shaxsiy rivojlanishga yo’naltirilgan insonparvar yondashuv” deb izohlagan. Ushbu nazariy asoslar o’zbek tili ta’limida ham to’liq qo’llanilishi mumkin, chunki til o’rganishning asosiy maqsadi – fikrni to’g’ri va erkin ifodalash, kommunikativ muhitda faol bo’lishdir. Shu nuqtai nazardan, o’zbek tili o’qituvchilari zamonaviy metodlar, AKT vositalari, jamoaviy ishlash strategiyalarini birlashtirgan holda darslarni tashkil etishlari zarur. Interaktiv metodlar faqat dars shakli emas, balki ta’lim falsafasidir, ya’ni o’quvchi markazida turgan, uni faol ishtirokchi sifatida shakllantiruvchi tizimdir. Demak, interaktiv metodlar o’zbek tilini o’qitishda o’quvchi faolligini oshirish, bilimni mustahkamlash, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini kafolatlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli mazkur maqolada interaktiv metodlarning nazariy asoslari, amaliy tatbiq yo’llari va samaradorlikni oshirishda foydalaniladigan yondashuvlar tahlil qilinadi.

An’anaviy o’qitish metodlari, ko’pincha, talabalarining faqat tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi, passiv ishtirokchi sifatida shakllanishiga olib keladi. Bunday metodlarda ta’lim jarayoni asosan o’qituvchining markaziy roli bilan kechadi, o’quvchilar esa bilimni eslab qolish bilan cheklanadilar. Bu yondashuvda til birliklarining real muloqotdagi qo’llanilish imkoniyatlari yetarlicha rivojlanmaydi, natijada o’rganilgan so’zlar faol nutq amaliyotiga tatbiq etilmaydi. Shu sababli, bunday ta’lim usullari o’quvchilarda mustaqil fikrlash, erkin muloqot qilish va so’z boyligini amalda qo’llash ko’nikmalarini shakllantirishda yetarlicha samarali emas.

Ayni paytda, interaktiv metodlar til o’rganish jarayonini faol, mazmunli va kommunikativ tusga keltiradi. Rolli o’yinlar, muhokamalar, guruhlarda ishlash, debatlar, “aqliy hujum”, task-based learning kabi usullar orqali o’quvchi ta’lim jarayonining markaziga aylanadi. U faqat tinglovchi emas, balki fikrlovchi, izlanovchi va muloqot qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Interaktiv yondashuvlar ta’limning o’zaro muloqotga asoslanishini ta’minlab, o’quvchilarda so’zlarni real kontekstda, turli nutqiy vaziyatlarda qo’llash ko’nikmasini shakllantiradi. Shu jarayon orqali lug’at boyligi nafaqat kengayadi, balki ongli va barqaror tarzda mustahkamlanadi.

Ko’plab xorijiy tadqiqotchilar interaktiv metodlarning o’quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaganlar. Masalan, Brown interaktiv mashg’ulotlar jarayonida talabalar bir-biri bilan fikr almashish, muammoli vaziyatlarni hal etish orqali nafaqat yangi so’zlarni o’rganishini, balki ularni nutqda faol qo’llashga odatlanishini ta’kidlaydi [Brown, H. D., Principles of language learning and teaching, Pearson Education, 2007. 45-b]. Shuningdek, Richards va Rodgers interaktiv metodlarni “tilni o’rgatishdan ko’ra, uni yashash” jarayoniga aylantiruvchi vosita sifatida baholagan.



O'zbekiston ta'lim tizimida ham interaktiv yondashuvlarga asoslangan o'qitish metodlari so'nggi yillarda keng joriy etilmoqda. Zokirova va Karimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv dars shakllari orqali o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda yuqori natijalar kuzatilgani qayd etilgan. Jumladan, guruhli ishlash jarayonida o'quvchilarning o'zaro fikr almashuvi, yangi so'zlarni qo'llab ko'rishi, hamkorlikda muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi natijasida ularning nutqiy faolligi ortgani aniqlangan. Shuningdek, interaktiv metodlar ta'limda ijobiy psixologik muhit yaratadi: o'quvchilar o'z fikrini bildirishdan cho'chimaydi, xatolardan o'rganadi, muloqot orqali o'z-o'zini tahlil qilishni o'rganadi. Bu esa so'z boyligini rivojlantirish bilan bir qatorda, o'quvchilarning o'ziga ishonchini mustahkamlaydi. Bunday faoliyat davomida til birliklari shunchaki yodlab olinadigan ma'lumot emas, balki kommunikatsiyaning amaliy vositasiga aylanadi.

Shunday qilib, interaktiv metodlar nafaqat lug'at boyligini kengaytiradi, balki o'quvchilarning fikrlash madaniyatini, kommunikativ malakasini va ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ular orqali talaba o'z bilimini amaliyotda qo'llashni, tilda erkin fikrlash va muloqot qilishni o'rganadi. Shu sababli, interaktiv metodlar zamonaviy ta'lim jarayonida eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [Karimova, D., So'z boyligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni, Filologiya Masalalari, 2021.214-b].

Kompyuter yordamida til o'rganish dasturlari zamonaviy til ta'limida muhim vosita sifatida qaraladi. Ular yangi tilni o'rganish jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va interaktiv shaklga olib keladi. Masalan, o'zbek tilini o'rgatishga mo'ljallangan maxsus dasturlar talabalarga til birliklarini mustahkamlashda sezilarli yordam beradi. Ushbu dasturlar o'quvchilarga so'z boyligini kengaytirish, grammatik qoidalarni o'zlashtirish va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Dasturiy ta'minot tarkibida ko'plab interaktiv elementlar mavjud: o'yinlar, testlar, viktorinalar, mashqlar va vazifalar o'quvchilarning faolligini oshiradi. Shu orqali o'quvchilar materialni passiv ravishda eslab qolish bilan cheklanmay, uni amalda qo'llashga o'rgatiladi. Interaktiv mashqlar va qiziqarli o'yinlar yordamida o'quvchilar motivatsiyasi ortadi, o'rganilgan bilimlar esa ongli va barqaror tarzda mustahkamlanadi. Shuningdek, kompyuter dasturlari yangi boshlanuvchilar uchun ham qulaylik yaratadi. Ular o'quvchining darajasini hisobga olgan holda mashqlarni bosqichma-bosqich taqdim etadi, murakkablik darajasini asta-sekin oshiradi va talabaning o'zlashtirish sur'atini kuzatadi. Bunday tizim o'quvchilarda til bilan tez-tez shug'ullanish, mustaqil mashq qilish va doimiy ravishda tilni amaliyotda qo'llashga qiziqish uyg'otadi. Natijada, kompyuter yordamida o'rganiladigan til dasturlari o'quv jarayonini interaktiv va individual yondashuv bilan boyitadi, talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va o'rganilgan bilimlarni amalda mustahkamlash imkonini yaratadi. Bu esa ularni tilni nafaqat nazariy, balki real muloqotda ham faol qo'llashga tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlarning joriy etilishi zamonaviy pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ularning asosiy afzalligi shundaki, ular talabalarning passiv bilim qabul qiluvchisi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalarning nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarini, fikrlash va ijodiy faoliyatini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Interaktiv metodlarni tatbiq etishning samarali yo'llaridan biri o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini qayta tashkil etishdir. Bu jarayonda ustuvor e'tibor o'qituvchining roliga qaratiladi: u nafaqat bilim uzatuvchi, balki yo'naltiruvchi, muammoli vaziyatlarni tashkil qiluvchi va tahliliy yondashuvlarni rag'batlantiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois, o'qituvchilarga interaktiv metodlarni qo'llash bo'yicha maxsus treninglar, seminarlar va master-klasslar o'tkazish zarur. Malakali o'qituvchi har bir darsni modul va bosqichlarga ajratib, talabalarning faolligini doimiy ravishda kuzatadi va rag'batlantiradi.

Dars materiallarini interaktiv shaklga keltirish ham ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Multimedia resurslar, interaktiv testlar, onlayn vazifalar, o'yinlar va viktorinalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, ularni o'z bilimini amalda qo'llashga undaydi. Ayniqsa, masofaviy ta'lim sharoitida interaktiv elementlarning qo'llanilishi talabalarni faol ishtirokga jalb qiladi va ularning bilimini doimiy monitoring qilish imkonini yaratadi.

Kichik guruhlar va jamoaviy ishlarni tashkil etish ham interaktiv ta'limning ajralmas tarkibiy qismidir. Talabalarni guruhlariga bo'lib, birgalikda muammoli vazifalarni yechishga jalb qilish, ularning kommunikativ va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Guruh ishlarida har bir o'quvchining roli aniq belgilanishi talabaning mas'uliyatini oshiradi va faolligini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, talabalarni guruhda ishlash jarayonida o'zaro fikr almashish va konstruktiv munozara olib borishga o'rgatish, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi.



O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish interaktiv metodlarning samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Rag‘batlantiruvchi tizimlar — ball, sertifikatlar, elektron yutuqlar va darslarda kichik tanlovlar — talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Motivatsiya oshganda, o‘quvchilarning bilimni mustahkamlash va yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi.

Texnologiyalarni joriy etish interaktiv metodlarning muhim tarkibiy qismidir. Kompyuter dasturlari va mobil ilovalar o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik aniqlash, murakkablik darajasini moslashtirish va individual o‘quv rejalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu orqali har bir talaba uchun individual va samarali ta’lim jarayoni tashkil qilinadi. Masalan, so‘z boyligini oshirish, grammatika qoidalarini mustahkamlash va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar o‘quvchilarning til bilan muntazam shug‘ullanishini ta’minlaydi.

Interaktiv metodlarni tatbiq etishda baholash tizimini modernizatsiya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarni faqat yakuniy test yoki imtihon orqali emas, balki darsdagi faol ishtirok, jamoaviy ishlarda qatnashish va loyihalarni bajarish orqali baholash lozim. Formativ baholash talabaning o‘z-o‘zini baholashini ta’minlaydi va u o‘z bilimni doimiy ravishda tahlil qilib boradi, bu esa ta’lim sifatini oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida interaktiv metodlarni keng tatbiq etish uchun tizimli yondashuv zarur. Bunda birinchi navbatda o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Keyingi qadam — dars materiallarini interaktiv formatda tayyorlash va texnologik vositalardan foydalanish. Uchinchidan, kichik guruh ishlarini kengaytirish va jamoaviy faoliyatni rag‘batlantirish lozim. Shuningdek, baholash tizimini zamonaviylashtirish, talabalarni doimiy ravishda monitoring qilish va ularni faol ishtirokga undash ham ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, interaktiv metodlar ta’lim jarayonini nafaqat samarali, balki talaba markazli, dinamik va qiziqarli qiladi. Ular talabalarning o‘z bilimni amalda qo‘llash ko‘nikmasini oshiradi, kommunikativ va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi hamda motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, interaktiv metodlarning tatbiqi zamonaviy pedagogik jarayonni raqamli va texnologik jihatdan boyitadi, o‘quvchilarning individual o‘shishini ta’minlaydi va ta’lim sifatini barqaror oshiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni samarali tatbiq etish nafaqat pedagogik yondashuvga, balki texnologik vositalarning to‘liq integratsiyasiga ham bog‘liq. Texnologiyalar talabalarning bilim olish jarayonini yanada boyitadi, individual o‘shishni ta’minlaydi va darslarni interaktiv shaklda tashkil etishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida texnologiyalar bilan integratsiya qilish ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: birinchisi — mavjud interaktiv metodlarni texnologik vositalar yordamida boyitish, ikkinchisi — yangi metodlarni sinovdan o‘tkazish va ularni pedagogik jarayonga joriy etish.

Birinchi yo‘nalishda, kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar interaktiv metodlarni qo‘llash jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Masalan, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar talabalarga testlar, viktorinalar, o‘yinlar va mashqlar orqali bilimni mustahkamlash imkonini beradi, shuningdek, ularning o‘rganish jarayonini doimiy monitoring qilish va individual darajaga moslashtirish imkonini yaratadi. Shu tariqa, Vygotsky va Dewey pedagogik nazariyalaridagi “ijtimoiy muloqot” va “tajriba orqali o‘rganish” tamoyillari texnologiyalar yordamida amaliyotga tatbiq etiladi.

Ikkinchi yo‘nalish — yangi pedagogik metodlarni sinovdan o‘tkazish va ularni tizimli ravishda joriy etish. Yangi metodlarni amaliyotga tatbiq etishdan oldin, ularni pilot darslar va eksperimental sinflarda sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning metodga reaksiyasi, ularning faolligi va bilim o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Sinov natijalari asosida metodni optimallashtirish, dars rejalariga integratsiya qilish va texnologik vositalar bilan moslashtirish mumkin.

Texnologiyalar yordamida yangi metodlarni sinovdan o‘tkazishning yana bir afzalligi — bu natijalarni avtomatlashtirilgan tarzda kuzatish va tahlil qilish imkoniyati. Onlayn platformalar va dasturlar talabalarning har bir mashq va vazifani bajarish jarayonini yozib boradi, ularning natijalarini grafik va statistik ko‘rinishda taqdim etadi. Shu orqali pedagoglar qaysi metodlar samarali ekanini aniqlashlari va ularni tizimli ravishda darslarga joriy etishlari mumkin.

Bundan tashqari, texnologiyalar bilan integratsiya qilish talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Interaktiv o‘yinlar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn tanlovlar o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb qiladi, ularning o‘z bilimni amalda sinab ko‘rish va mustaqil rivojlanish istagini uyg‘otadi. Shu tariqa, texnologik vositalar nafaqat metodlarni qo‘llashni osonlashtiradi, balki ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi.



Natijada, texnologiyalar bilan integratsiya qilish va yangi pedagogik metodlarni sinovdan o'tkazish ta'lim jarayonini samarali, dinamik va talaba markazli qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuv interaktiv metodlarning pedagogik asoslarini amaliyot bilan uyg'unlashtiradi, talabalarning bilim va ko'nikmalarini kengaytiradi hamda ularning ijodiy va muloqot salohiyatini rivojlantiradi. Interaktiv metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, o'z fikrini ifodalash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularning o'z-o'zini baholash qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi, o'quv jarayonini qiziqarli va amaliy qiladi, shuningdek, ularning fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning bilim darajasi uning rivojlanish bosqichlariga moslashgan muammoli vazifalarni bajarishi orqali oshadi, interaktiv metodlar aynan shu jarayonni ta'minlaydi. Shuningdek, interaktiv metodlar talabalarning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Guruh ishlari, debat va rolli o'yinlar o'quvchilarga bir-biri bilan muloqot qilish, fikr almashish va konstruktiv munozara olib borish imkonini beradi. Vygotsky nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy muloqot orqali talabaning bilim va ko'nikmalari shakllanadi, shuning uchun interaktiv metodlar bu jarayonni amalda qo'llashga yordam beradi va talabalarni hamkorlik va jamoaviy ishlashga o'rgatadi [Zokirova, M., Interaktiv metodlar yordamida til o'rgatish samaradorligini oshirish, Til va Adabiyot Ta'limi, 2020.25-b].

Interaktiv metodlar o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishda ham samarali hisoblanadi. O'yinlar, viktorinalar, tanlovlar va texnologik vositalar talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim nazariyasi shuni ta'kidlaydiki, o'quvchining motivatsiyasi va faoliyati uning tajribasi bilan chambarchas bog'liq, shu bois interaktiv metodlar o'quvchilarda motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, interaktiv metodlar ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga imkon yaratadi. Innovatsion yondashuvlar talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi, o'z g'oyalarini erkin ifodalash, yangi yechimlarni taklif qilish va muammoli vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalarga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Interaktiv metodlar shuningdek, talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Formativ baholash, guruh ishlaridagi faoliyat va o'z-o'zini baholash orqali talabalar o'z rivojlanishini kuzatadi, bu esa ularning o'qishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Shu tariqa, interaktiv metodlar talabalarning kognitiv, kommunikativ, motivatsion va ijodiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ularni ta'lim tizimiga tizimli ravishda joriy etish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki talabalarning shaxs sifatida o'sishini ham ta'minlaydi.

Interaktiv metodlar ta'lim jarayonida faqat bilim berish vositasi emas, balki talabaning shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim vosita ekanligi aniqlandi. Ushbu metodlar o'quvchilarning qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashda sezilarli rol o'ynaydi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalarni o'zini-o'zi boshqarish, vaqtni samarali taqsimlash va mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi, bu esa ularning o'quv jarayonidagi faolligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarning ijodiy salohiyati rivojlanadi, ular yangi g'oyalarni sinashga va turli vaziyatlarga moslashishga o'rganadi. Talabalarning o'zaro aloqasi va jamoaviy ishlash ko'nikmalari ham oshadi, chunki interaktiv yondashuvlar ularni fikr almashishga, boshqalarning fikrini tinglashga va konstruktiv munozaralarda qatnashishga undaydi. Shu yo'l bilan ular kelajakda professional va shaxsiy hayotda muammolarni samarali hal qilishga tayyor bo'ladilar. Shuningdek, interaktiv metodlarni doimiy qo'llash talabalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini doimiy yangiliklarga ochiq qiladi. Ular o'quvchilarda mustahkam bilim, moslashuvchan fikrlash va tajribaga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bois, interaktiv metodlar ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, interaktiv metodlarni tizimli ravishda tatbiq etish nafaqat o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, balki talabalarning mustaqil, ijodkor va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi, bu esa zamonaviy ta'limning eng asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brown H. D., Principles of language learning and teaching, Pearson Education, 2007.
2. Harmer J., The practice of English language teaching, Pearson Longman, 2007.



3. Karimova D., So‘z boyligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, Filologiya Masalalari, 2021.
4. Mamatqulova S., Talabalarning nutq faolligini oshirishda interaktiv metodlardan foydalanish, O‘zbek Tilshunosligi Ilmiy Jurnal, 2022.
5. Nation I. S. P., Learning vocabulary in another language, Cambridge University Press, 2013.
6. Willis J., A framework for task-based learning, Longman, 1996.
7. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. TA’LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 380-388.
8. R.A.Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGINING IJTIMOIIY MUHITGA TA’SIRI. ZAMONAVIIY FAN: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YOSH TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI, 1(1), 16-19.
9. Zokirova M., Interaktiv metodlar yordamida til o‘rgatish samaradorligini oshirish, Til va Adabiyot Ta’limi, 2020.

TARIX FANINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

Rustamboyeva Gavharoy Xayitali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Email: gavharoyrustamboyeva03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellektning ta’lim tizimiga kirib kelishi, ayniqsa, tarix darslarini interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etishdagi roli tahlil qilinadi. Maqola ta’lim tizimida sun’iy intellektning(SI) ahamiyatini o‘rganadi, uning ijobiy va salbiy jihatlarini atroflicha yoritadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ta’lim tizimi, raqamlashtirish, interaktivlik, texnologiya, ta’lim samaradorligi.

POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING HISTORY

Rustamboyeva Gavharoy Khayitali qizi

1st year master's student of Namangan State Pedagogical Institute

Email: gavharoyrustamboyeva03@gmail.com

Annotation: This article discusses the introduction of artificial intelligence into the education system. The article analyzes the role of AI in the education system, especially in making history lessons interactive, interesting and effective. The article examines the importance of artificial intelligence(AI) in the education system, comprehensively covers its positive and negative aspects.

Keywords: artificial intelligence, education system, digitalization, interactivity technology, educational effectiveness.

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

Рустамбоева Гавхарой Хайитали кызы

Студентка 1 курса магистратуры Наманганского государственного педагогического института

Электронная почта: gavharoyrustamboyeva03@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается внедрение искусственного интеллект (ИИ) в системе образования, особенно в организации интерактивных, интересных и эффективных уроков истории. В статье рассматривается значение искусственного интеллект(ИИ) в системе образования, всесторонне освещаются его положительные и отрицательные стороны.

Ключевые слова: искусственный интеллект, система образования, цифровизация, интерактивность технологии, эффективность образования.